



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Navoiy viloyatining doimiy aholi soni 2020- yil 1- oktabr holatiga 1 009,3 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,8 ming kishiga yoki 1,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 493,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 515,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 51,1 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:  
2020- yil yanvar-sentabr  
holatiga**

- Aholi soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,8 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 17,6 ming nafarni tashkil etdi.
- FHDYO bo'limlarda 5,8 mingta nikoh va 0,7 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

**Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi  
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**

**Tirik tug'ilganlar  
17,6 ming bola**

**Ko'chib kelganlar  
5,1 ming kishi**

**Aholining tabiiy  
harakati**

**Mexanik o'sish  
-1,5 ming kishi**

**Aholining umumiyo'sishi  
16,8 ming kishi**

**Har 1000 aholiga  
23,4 ming kishi**

**Ko'chib ketganlar  
6,6 ming kishi**




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)



**Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 201,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 153,4 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 15,0 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (1,5 %) tashkil etdi.**

**Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan Navoiy shahrida 106,0 % ni, Tomdi tumanida 102,7 % ni, Konimex tumanida 101,9 % ni, Navbahor tumanida 101,7 % ni, Xatirchi tumanida 101,6 % ni, Qiziltepa tumanida 101,5 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Karmana tumanida 97,6 % ni tashkil etdi.**



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.  
(2020- yil 1- oktabr holatiga)**

	<u>Jami aholi</u>	<u>Shahar aholisi</u>	<u>Qishloq aholisi</u>	<u>Erkaklar</u>	<u>Ayollar</u>	<u>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</u>
Viloyat bo'yicha:	1 009 339	493 566	515 773	511 749	497 590	9,1
shaharlar:						
Navoiy	146 082	146 082	-	73 637	72 445	2435,0
Zarafshon	84 769	84 769	-	44 403	40 366	4240,0
tumanlar:						
Karmana	127 369	42 175	85 194	63 142	64 227	135,5
Konimex	36 028	16 416	19 612	18 997	17 031	3,9
Qiziltepa	153 402	48 669	104 733	77 499	75 903	70,0
Navbahor	114 281	16 455	97 826	57 853	56 428	72,8
Nurota	93 632	55 499	38 133	48 265	55 499	14,3
Tomdi	14 978	4 769	10 209	7 618	4 769	0,4
Uchquduq	37 579	32 880	4 699	18 630	32 880	0,8
Xatirchi	201 219	45 852	155 367	101 705	45 852	141,7

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2020- yil 1- oktabr** holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Nurota tumanida 11,2 % ni, Qiziltepa tumanida 9,9 % ni, Xatirchi tumanida 9,3 % ni, Karmana tumanida 8,5 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex hamda Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi  
(2020- yil 1- oktabr holatiga, foizda)**





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Aholing tabiiy harakati 2020- yil yanvar-sentabr holatiga

	2019- yil kishida	2020- yil kishida	o'sish, kamayish	2019- yil har ming kishiga	2020- yil har ming kishiga
Tug'ilganlar	16789	17611	822	22,8	23,4
Nikohlar	6210	5822	-388	8,4	7,8
Ajralishlar	685	669	-16	0,9	0,9

### 2020- yil yanvar-sentabr holatiga aholining tabiiy harakati





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Tug'ilish.** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 17 611 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), o'tgan yilga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,4 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshgan (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 22,8 promille bo'lgan). Tug'ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Tomdi tumanida (13,1 dan 18,7 promillega), Nurota tumanida (23,4 dan 25,9 promillega), Zarafshon shahrida (21,0 dan 23,1 promillega), Konimex tumanida (20,5 dan 22,2 promillega), Uchquduq tumanida (24,5 dan 25,9 promillega), Navoiy shahrida (21,4 dan 22,3 promillega) va Xatirchi tumanida (25,2 dan 25,7 promillega), sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Navbahor tumanida (22,6 dan 22,3 promillega), kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlardan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishti) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yli 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



### Tug'ilganlar 2020- yil yanvar-sentabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati % da
Navoiy viloyati	16789	17611	104,9
Navoiy sh.	2194	2420	110,3
Zarafshon sh.	1301	1455	111,8
Karmana t.	2369	2323	98,1
Konimex t.	540	595	110,2
Qiziltepa t.	2369	2426	102,4
Navbahor t.	1887	1895	100,4
Nurota t.	1605	1754	109,3
Tomdi t.	142	174	122,5
Uchquduq t.	680	724	106,5
Xatirchi t.	3702	3845	103,9



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Nikoh.** 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 5 822 nafar nikoh qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaydi. (2019- yilning yanvar-sentyabr oylarida 8,4 promille bo`lgan). Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada ko'payishi Navbahor tumanida (8,8 dan 9,6 promillega), Nurota tumanida (8,8 dan 9,3 promillega), aksincha sezilarli darajada kamayishi Zarafshon shahrida (7,7 dan 5,1 promillega), Uchquduq tumanida (7,2 dan 5,1 promillega), Tomdi tumanida (5,0 dan 3,0 promillega), Konimex tumanida (6,5 dan 5,0 promillega), Xatirchi tumanlariga (9,1 dan 8,2 promillega), Karmana tumanida (9,4 dan 8,6 promillega) va Navoiy shahrida (8,3 dan 7,9 promillega) to`g`ri kelmoqda.



### Tuzilgan nikohlar 2020- yil yanvar-sentabré holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	6210	5822	93,8
Navoiy sh.	847	860	101,5
Zarafshon sh.	479	321	67,0
Karmana t.	905	811	89,6
Konimex t.	171	133	77,8
Qiziltepa t.	880	872	99,1
Navbahor t.	731	816	111,6
Nurota t.	605	599	99,0
Tomdi t.	54	34	63,0
Uchquduq t.	199	144	72,4
Xatirchi t.	1339	1232	92,0




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Nikohdan ajralishlar.** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 669 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan teng (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 0,9 promille bo'lgan). Ajrimlar koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Tomdi (0,3 dan 0,5 promillega), Qiziltepa (0,6 dan 0,7 promillega), Navbahor tumanida (0,8 dan 0,9 promillega), Karmana tumanida (1,0 dan 1,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Uchquduq (0,9 dan 0,6 promillega), Konimex tumanida (1,2 dan 0,9 promillega) va Navoiy shahrida (1,4 dan 1,3 promillega) to'g'ri kelmoqda.



### Nikohdan ajralganlar 2020- yil yanvar-sentabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	685	669	97,7
Navoiy sh.	140	144	102,9
Zarafshon sh.	80	76	95,0
Karmana t.	99	107	108,1
Konimex t.	32	24	75,0
Qiziltepa t.	72	84	116,7
Navbahor t.	65	76	116,9
Nurota t.	33	34	103,0
Tomdi t.	3	6	200,0
Uchquduq t.	37	17	45,9
Xatirchi t.	124	101	81,5



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


## Demografik holat

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	7 914	5 119
Ko'chib ketganlar	8 510	6 593
Migratsiya saldosi	-596	-1 474

(dastlabki ma'lumotlar)



**Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni  
2020- yil yanvar-sentabr holatiga, (birlikda)**





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- oktabr holatiga 5 119 nafar ko'chib kelganlar 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,9 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 10,7 promille bo'lgan). Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Zarafshon shahrida (17,3 dan 7,9 promillega), Karmana tumanida (17,9 dan 8,4 promillega), Uchquduq tumanida (12,9 dan 6,5 promillega), Konimex tumanida (14,6 dan 9,5 promillega), Navbahor tumanida (7,0 dan 4,3 promillega) to'g'ri kelmoqda.



### Ko'chib kelganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%)da
Navoiy viloyati	7914	5119	64,7
Navoiy sh.	2033	1906	93,8
Zarafshon sh.	1073	500	46,6
Karmana t.	1729	796	46,0
Konimex t.	384	255	66,4
Qiziltepa t.	482	331	68,7
Navbahor t.	585	362	61,9
Nurota t.	315	198	62,9
Tomdi t.	238	237	99,6
Uchquduq t.	359	183	51,0
Xatirchi t.	716	351	49,0



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Ko'chib ketganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	8510	6593	77,5
Navoiy sh.	2 351	1 757	74,7
Zarafshon sh.	1215	707	58,2
Karmana t.	869	778	89,5
Konimex t.	472	232	49,2
Qiziltepa t.	517	465	89,9
Navbahor t.	447	402	89,9
Nurota t.	481	465	96,7
Tomdi t.	221	63	28,5
Uchquduq t.	901	401	44,5
Xatirchi t.	1036	1323	127,7

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- oktabr holatiga 6 593 nafar ko'chib ketganlar 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti 8,8 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,7 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 11,5 promille bo'lgan). Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli ko'payish Xatirchi tumanida (7,0 dan 8,8 promillega), Nurota tumanida (7,0 dan 7,2 promillega), aksincha sezilarli kamayish Uchquduq tumanida (32,4 dan 14,3 promillega), Tomdi tumanida (20,4 dan 5,7 promillega), Konimex tumanida (19,6 dan 11,2 promillega), Zarafshon shahrida (19,6 dan 11,2 promillega), Karmana tumanida (9,0 dan 8,2 promillega), Navbahor tumanida (5,4 dan 4,7 promillega) to'g'ri kelmoqda.




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni  
2020- yil yanvar-sentabr holatiga, (birlikda)



Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasi  
Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi

Tel.: (79) 223-07-41